

## MAKTAB O'QUVCHILARIDA KOGNITIV DISSONANS VA UNING O'QISH MOTIVATSIYASIGA TA'SIRI

Ortiqova Sug'diyona Oybek qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktab o'quvchilarida kognitiv dissonansning yuzaga kelish sabablari, uning o'qish jarayonidagi namoyon bo'lish shakllari hamda o'quv motivatsiyasiga ta'siri psixologik jihatdan yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ichki ziddiyat holatining qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri va bu holatning o'quv samaradorligiga bog'liqligi ham tahlil qilingan. Shu bilan birga, o'quvchilarda ichki ziddiyatni kamaytirish va ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** kognitiv dissonans, o'quvchilar psixologiyasi, o'qish motivatsiyasi, ichki ziddiyat, qaror qabul qilish, ta'lim jarayoni, xulq-atvor, diqqat, tafakkur

**Аннотация.** В данной статье психологически рассматриваются причины возникновения когнитивного диссонанса у школьников, формы его проявления в процессе обучения, а также его влияние на учебную мотивацию. Также анализируется влияние состояния внутреннего конфликта на процесс принятия решений у учащихся и его связь с учебной успеваемостью. Кроме того, представлены рекомендации по снижению внутреннего противоречия у школьников и формированию позитивного отношения к обучению.

**Ключевые слова:** когнитивный диссонанс, психология учащихся, учебная мотивация, внутренний конфликт, принятие решений, образовательный процесс, поведение, внимание, мышление.

**Annotation.** This article explores, from a psychological perspective, the causes of cognitive dissonance in school students, its manifestations in the learning process, and its impact on learning motivation. It also analyzes how internal conflict affects students' decision-making processes and how this state is related to academic performance. In addition, the article provides recommendations for reducing internal conflict in students and fostering a positive attitude toward education.

**Keywords:** cognitive dissonance, psychology of students, learning motivation, internal conflict, decision making, educational process, behavior, attention, thinking.

**Kirish.** Ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixologik holati va o'qishga bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim olish jarayoni nafaqat intellektual, balki ichki motivatsiya va emotsional barqarorlik bilan ham bog'liqdir. Shu jihatdan kognitiv dissonans — ya'ni ongda yuzaga keladigan ichki ziddiyat holati — o'quvchilarning o'qish faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kognitiv dissonans o'quvchilarda qarama-qarshi fikrlar va harakatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi. Bu holat ularning diqqatini jamlashiga, qaror qabul qilishiga hamda o'qishga bo'lgan motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu psixologik hodisani o'rganish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr)da ham ta'lim tizimining asosiy maqsadi sifatida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish belgilangan [1]. Bu esa o'quvchilarning psixologik holatini o'rganish va ularni qo'llab-quvvatlash zarurligini

ko'rsatadi. Shu sababli kognitiv dissonansni o'rganish, uning o'quvchilarda qanday shakllanishini aniqlash hamda uni kamaytirish yo'llarini ishlab chiqish pedagogik psixologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktab o'quvchilarida kognitiv dissonansning yuzaga kelish sabablari va uning o'quv motivatsiyasiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda kognitiv rivojlanish shaxsning faoliyatga kirishishi, ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri va tajriba orttirishi natijasida shakllanadigan murakkab dinamik jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv rivojlanish nafaqat ichki psixik jarayon, balki ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va shaxslararo munosabatlar bilan uzviy bog'liq hodisa hisoblanadi. Kognitiv jarayonlar va ularning rivojlanishi masalasi psixologiya fanida bir qator yetakchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, **Jean Peaje** kognitiv rivojlanishni bosqichma-bosqich kechadigan tabiiy jarayon sifatida izohlaydi [2].

Uning fikricha, bolalar bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faol kognitiv faoliyat orqali "konstruksiya" qiladi. Peaje nazariyasida o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi asosan ichki biologik yetilish va shaxsiy tajriba bilan bog'liq holda kechadi. Bunga qarama-qarshi ravishda **Lev Vygotsky** kognitiv rivojlanishni ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi [3].

Unga ko'ra, bola tafakkuri avval ijtimoiy darajada shakllanib, keyinchalik ichki psixik jarayonga aylanadi. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi o'quvchilarning kattalar yoki tajribaliroq tengdoshlari yordamida yuqori natijalarga erishishini asoslaydi.

Zamonaviy psixologiyada **Jerome Bruner** ham kognitiv rivojlanish masalasiga katta hissa qo'shgan. U ta'lim jarayonida "Kashf etib o'rganish" g'oyasini ilgari surib, o'quvchilarning faol ishtiroki bilimni chuqurroq o'zlashtirishga olib kelishini ta'kidlaydi [4]. Brunerga ko'ra, o'quv jarayoni doimiy ravishda soddadan murakkabga tomon rivojlanib borishi lozim. Shuningdek, **David Ausubel**ning "Ma'noli o'qitish nazariyasi" kognitiv rivojlanishda oldingi bilimlar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [5]. U yangi bilimlar mavjud bilimlar tizimi bilan bog'langandagina samarali o'zlashtirilishini asoslab bergan.

**Robert Siegler** esa kognitiv rivojlanishni strategiyalar o'zgarishi va muammolarni hal qilish usullarining takomillashuvi sifatida izohlaydi [6]. Uning tadqiqotlari bolalar tafakkuri bir xil bosqichlarda emas, balki moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda rivojlanishini ko'rsatadi.

Rus psixologiya maktabida **Boris Ananyev** shaxs rivojlanishini yaxlit tizim sifatida o'rganib, kognitiv jarayonlar ijtimoiy va individual omillar integratsiyasi natijasi ekanini ta'kidlaydi [7]. **Aleksey Leontyev** esa faoliyat nazariyasi asosida bilish jarayonining faoliyat bilan bevosita bog'liqligini asoslab beradi [8].

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan **Laura E. Berk** ishlarida, bolalarda ijro funksiyalari, diqqatni boshqarish va xotira jarayonlari kognitiv rivojlanishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi [9]. Bu yondashuvlar kognitiv rivojlanishning faqat yosh bilan emas, balki muhit va tajriba bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili kognitiv rivojlanishning murakkab, ko'p omilli va dinamik jarayon ekanini ko'rsatadi.

Peajening bosqichli yondashuvi, Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi hamda zamonaviy olimlarning tadqiqotlari integratsiyasi kognitiv jarayonlarni chuqurroq tushunish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Kognitiv dissonans shaxs ongida qarama-qarshi fikrlar, e'tiqodlar va xatti-harakatlar o'rtasida yuzaga keladigan murakkab psixologik holat bo'lib, u maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati va motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat o'quvchilarda ichki noqulaylik, ikkilanish, o'ziga ishonchsizlik hamda qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kognitiv dissonansning yuzaga kelishi ko'pincha o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholashi, tashqi bosim (o'qituvchi yoki ota-ona talablari), muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish hamda ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liqdir. Bu omillar o'quvchilarning diqqatini jamlashiga, mustaqil fikrlashiga va o'qishga bo'lgan qiziqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kognitiv dissonans o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ichki ziddiyat kuchaygan sari o'quvchilarda darslarga befarqlik, topshiriqlarni bajarishda sustkashlik va o'z bilimiga shubha qilish holatlari ortadi.

Natijada ularning akademik samaradorligi pasayadi. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, kognitiv dissonans to'g'ri boshqarilsa, u ijobiy o'zgarishlarga ham turtki bo'lishi mumkin. Ya'ni o'quvchi ichki ziddiyatni bartaraf etish orqali o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqadi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilarda ijobiy psixologik muhit yaratishga, ularni rag'batlantirishga hamda stress va bosimni kamaytirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Psixologik qo'llab-quvvatlash, ochiq muloqot va individual yondashuv kognitiv dissonansni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – 182 p.
3. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978
4. Bruner J. S. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
5. Ausubel D. P. Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart and Winston, 1968.
6. Siegler R. S. Children's Thinking. – New Jersey: Prentice Hall, 1998. – 512 p.
7. Ананьев В. Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 288 с.
8. Leontiev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978. – 217 p.
9. Berk L. E. Child Development. – Boston: Pearson Education, 2013. – 827 p.